

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TURSUNOV AHMAD AMIROVICH

**NEMIS TILIDA FRAZELOGIYALASHGAN GAPLAR
VA ULARNING O‘ZBEK TILIDAGI MUQOBILLARINING
CHOG‘ISHTIRMA LINGVISTIK TADQIQI
(lug‘atlar asosida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Tursunov Ahmad Amirovich

Nemis tilida frazeologiyalashgan gaplar va ularning o‘zbek tilidagi muqobillarining chog‘ishtirma lingvistik tadqiqi (lug‘atlar asosida) 3

Турсунов Ахмад Амирович

Сопоставительное лингвистическое исследование фразеологизированных предложений в немецком языке и их аналогов в узбекском языке (на основе словарей) 25

Tursunov Ahmad Amirovich

Compared linguistic research of fraseological sentences in the German language and their analogues in the Uzbek language (on the basis of dictionaries) 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 55

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

TURSUNOV AHMAD AMIROVICH

**NEMIS TILIDA FRAZELOGIYALASHGAN GAPLAR
VA ULARNING O‘ZBEK TILIDAGI MUQOBILLARINING
CHOG‘ISHTIRMA LINGVISTIK TADQIQI
(lug‘atlar asosida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3.PhD/Fil2785 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasiga (www.samdhti.uz) hamda "Ziyonet" axborot tarmog'iga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yaxshiyev Ashur Abdiyevich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar: **Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ro'ziyev Yarash Bozorovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. 03.30.2019.Fil.83.01 raqamli Ilmiy Kengashning "____" _____ 2024-yil soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil "____" _____ dagi № ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

G'.Q.Mirsanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Sh.S.Safarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Zamonaviy jahon tilshunosligida frazeologik birliklarning yozma va og‘zaki nutqning turli janrlarida faollashuvi masalasi dolzarblashmoqda. Zotan, milliy tillarning, shu jumladan, nemis tilining ham o‘ziga xos jihatlari namoyon bo‘ladigan til birliklarini, ayniqsa frazeologik birliklarning formal-semantik modellarini ishlab chiqish bilan bog‘liq muammolarni har tomonlama tahlil qilish zarurati mavjud. Hozirgi zamon tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri frazeologizmlarning struktur-semantik va kognitiv-diskursiv xususiyatlari munosabatini o‘rganishdir. Bundan tashqari, frazeologizmlarning barcha lingvistik va sotsiomadaniy jihatlarining matnda tizimli aks etishi nazariy va amaliy tilshunoslikning dolzarb muammosi bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi zamon dunyo tilshunosligida, gap strukturali frazeologik birliklar o‘zining gap qurilishi va fikrni ifodalashi darajasiga ko‘ra ikki xil yondashuvda o‘rganilmoqda: 1) frazeologik birliklar gap modellari bo‘yicha ko‘rib chiqiladi; 2) belgi nazariyasi nuqtayi nazaridan til birliklari nutq aktida qaytadan shakllantirilmaydi (quyi darajadagi belgilarni birlashtirish orqali), balki so‘zlovchining xotirasida saqlanadigan tayyor til materiallari ko‘rinishida qo‘llaniladi. Shunday qilib, nemis, ingliz, rus va boshqa tillarda barqaror gap-frazeologik birliklar, ya‘ni gap strukturali frazeologik birliklar avvalambor rekurrentlik, qolaversa ma‘no va modallik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan.

Mustaqillik yillarida o‘zbek tilshunosligida xorijiy tillarni zamonaviy tamoyillar asosida tadqiq etish, jahon ilm-fani ilg‘or g‘oyalarini ijodiy o‘zlashtirish tajribasi shakllandi. Shunga binoan, “O‘zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo‘lishi shart”¹ligi tilshunoslik sohasidagi izlanishlarning nazariy va amaliy jihatdan yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishi lozimligini ko‘rsatadi. Mamlakatimizda o‘tkazilayotgan keng miqyosdagi islohotlar madaniyatlararo muloqot vositasi rivoji bo‘lgan til ta‘limi va tadqiqi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Ayni damda ilm-fanning barcha tarmoqlaridagi kabi o‘zbek germanshunosligida ham tubdan ijobiy o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqda. Nazariy tilshunoslik sohasida, chet tillarni o‘rganishda amaliy ko‘nikmalarni takomillashtirishning ilmiy asosi sifatida lisoniy tuzilmalarning funksional tavsiflarini o‘rganishga alohida e‘tibor qaratildi. Ilm-fan rivojining ilg‘or yutuqlariga tayangan holda “...ilmiy tadqiqotlar va innovatsion faoliyatning yutuqlarini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsion faoliyatning yutuqlarini amaliyotga joriy qilishning samarali mexanizmlarini yaratish”²ga katta e‘tibor berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi va Germaniya o‘rtasidagi kelishuvlar ilm-fan va ta‘lim sohalarida hamkorlikning yangi istiqbol va yo‘nalishlarini ochib beradi, xususan, muloqot jarayonining diskursiv va pragmatik parametrlarini tadqiq qilishga yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22.12.2017. Internet havola: <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, //Xalq so‘zi, 2017-yil, 8-fevral.

O‘zbekistonda turli mamlakatlar bilan har tomonlama hamkorlikning yangi bosqichga ko‘tarilishi xorijiy tillar tadqiqi va ta‘limini ma‘lum bir til sohiblarining madaniyati, mentaliteti, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashidagi o‘ziga xoslik asosida tashkil qilish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekiston tilshunosligi uchun xorijiy tillarda mavjud bo‘lgan faktlarni milliy til me‘yorlariga tayangan holda tahlil qilishda, ayniqsa, xorijiy tillar sintaksisi va stilistikasi masalalarini to‘laqonli yoritishda yangicha tahlil metodlari asosida yondashish zarurati dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son “O‘zbekiston Respublikasida yuridik ta‘lim va fanni tubdan takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2017-yil 27-iyuldagi PQ-3151-son “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda qator boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalari taraqqiyotining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” borasidagi ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Frazeologiya tilning alohida mustaqil tagtizimi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab maxsus o‘rganib kelinmoqda. Bu yo‘nalish shveysariyalik olim Sh.Balli nomi bilan bog‘liq. Shuningdek, frazeologiya bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarining takomiliga nemis olimlaridan W.Fleischer, H.Altmann, H.Bachmann, W.Dressler, H.Burger, A.Buscha, P.Eisenberg, H.J.Heringer, M.Schwarz, H.Glinz³, rus olimlaridan V.L.Arhangelskiy, Yu.Yu.Avalyani, N.N.Amosova, A.V.Kunin, V.V.Vinogradov,

³ Fleischer W. Phraseologie der deutschen Gegenwartssprache / W. Fleischer. – 2., durchgesehene und ergänzte Aufl. –Tübingen, 1997. – 299 S.; Altmann H. Formen der “Herausstellung” im Deutschen. Rechtsversetzung, Linksversetzung, Freies Thema und verwandte Konstruktionen. –Tübingen: Stauffenburg Verlag, 2008. – 348 S.; Bachmann Holger. Die Funktion idiomatischer Wendungen in populärer Literatur am Beispiel Comicbook. Mit einer Beispielinterpretation von Alan Moores ‘The Killing Joke’ // Sprachwissenschaft. –Heidelberg, 1996. - H.3. S. 337 – 366; Dressler W. Einführung in die Textlinguistik. –Tübingen, 2003. – 494 S.; Burger H. Phraseologie. Eine Einführung am Beispiel des Deutschen / H. Burger, E. Schmidt. – 4th ed. –Berlin, 2010. – 239 S.; Buscha A. Zu Fragen der Verkürzung im dialogischen Text // Probleme des Deutschunterrichts für Fortgeschrittene. –Leipzig, 1997. – S. 90-100; Eisenberg P. Grundriss der deutschen Grammatik. –Stuttgart: Franz Steiner Verlag, 2007. – 520 S.; Heringer H. J. Deutsche Syntax Dependentstil. – Bd. 1. –Tübingen: Stauffenburg Verlag, 2007. – 394 S.; Schwarz M. Einführung in die Kognitive Linguistik. –Tübingen: A. Francke Verlag, 2006. – 338 S.; Glinz H. Die innere Form des Deutschen. – Bern, 1991. - 374 S.

V.N.Teliya, N.F.Alefirenko⁴, o‘zbek tilshunoslaridan Sh.Rahmatullayev, Ya.Pinxasov, L.I.Royzenzon, A.M.Bushuy, H.Berdiyurov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov⁵ kabilar munosib hissa qo‘shgan. Mazkur olimlarning ishlarida frazeologizmlarning milliy-madaniy xususiyatlarining talqini, lisoniy madaniyatshunoslik, til semantikasi hamda lingvistika va lingvofalsafa masalalari tahlil qilingan.

Gap shaklidagi frazeologik birliklarning lingvistik xususiyatlari Sh.Rahmatullayev, Ya.Pinxasov, L.I.Royzenzon, A.M.Bushuy, H.Berdiyurov, B.Yo‘ldoshev, A.Mamatov kabi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Nemis tilida gap shaklidagi frazeologik birliklar nisbatan kam o‘rganilgan soha bo‘lib, asosan H.Vaynrix, P.Polenz va A.Myuller kabi olimlarning ishlarida kuzatilgan.

Dissertatsiyada jahon hamda o‘zbek tilshunoslarining bu sohadagi ilmiy izlanishlari e‘tiborga olindi. Ko‘rinadiki, nemis va o‘zbek tillarida gap shaklidagi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari, sintaktik-struktur jihatlari, xususan, madaniyatlararo munosabati bilan bog‘liq muammolarni tadqiq etish alohida ilmiy izlanishlarni talab etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Hozirgi zamon nemis va o‘zbek tillarida gap shaklidagi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari, tuzilish tarkibi hamda milliy-madaniy o‘ziga xos jihatlarni qiyosiy tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

hozirgi zamon nemis tilida gap strukturali frazeologik birliklar korpusini aniqlash hamda ularning semantik turlarini tizimlashtirish;

gap strukturali frazeologik birliklarning ma‘no turlarini belgilash va ularning shakllanishida metaforik ma‘no ko‘chish mavjudligini aniqlash;

gap strukturali frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish jarayonida ularning leksikografik manbalarda kodifikatsiyalanishini dalillash;

⁴ Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. –Ростов н/Д: Изд-во Рост. ун-та, 1964. – 315 с.; Авалиани Ю.Ю. К изучению разговорной фразеологии // Труды Самарканд, гос. ун-та им. А. Навои. Исследования по русскому и славянскому языкознанию. 3. –Самарканд, 1971. №205. – С.109-122; Амосова Н.Н. Основы английской фразеологии. –М.: ЛИБРОКОМ, 2010. – 216 с.; Кунин А.В. О фразеологической номинации // Фразеологическая семантика: сб. науч. трудов. –М., 1983. – Вып. 211. – С. 88-100; Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. –М.: Наука, 1977. – С. 140-161; Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.; Алефиренко Н.Ф. Спорные проблемы семантики. –М.: Гнозис, 2005. – 326 с.

⁵ Рахматуллаев Ш. Лексикология билан фразеология. Ҳозирги адабий ўзбек тили. –Тошкент, 1992. –Б. 49-186; Пинхасов Я. Ҳозирги ўзбек адабий тили (Лексикология ва фразеология). – Тошкент: Фан, 1969. – 286 б.; Ройзензон Л.И. Фразеологизация как лингвистическое явление // Труды Самаркандского государственного университета им. А. Навои. Кафедра иностранных языков. – 1961. – Вып. 113. – С. 101-117; Бушуй А.М. Устойчивые тавтологические комплексы в немецкой фразеологии. Бюллетень по фразеологии № I. - Самарканд, 1972, – С. 88-102; Бердиев Х., Йўлдошев Б. Ўзбек фразеологиясига доир библиографик кўрсаткич. –Самарканд: СамДУ, 1977. – 38 б.; Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, 2019. – 264 б.

gap strukturali frazeologik birliklarning paradigmatic munosabatlarini o'rganib, ularning polisemantik munosabatlarni amalga oshira olish imkoniyatlari mavjudligini isbotlash.

Tadqiqot obyekti sifatida komponentlar tarkibining ekspressiv obrazlilik bilan ajralib turadigan hozirgi zamon nemis va o'zbek tillarining leksikografik manbalarida kodlangan gap shaklidagi frazeologik birliklar tanlab olingan.

Tadqiqot predmeti gap strukturali frazeologik birliklarning lug'atlarda ifodalangan strukturaviy-semantik o'ziga xosligini, paradigmatic xususiyatlarini, frazeoshakllanish va stilistik-funksional maqomini belgilashdan iborat.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotning ko'p qirraliligi usullar majmuasidan foydalanishni taqazo etadi. Ushbu tadqiqotda asosiy usullar sifatida statistik usul, bayon qilish usuli, komponent tahlili usuli, qiyosiy tahlil, tavsiflash va tasniflash usuli, kontekstual va etimologik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

hozirgi zamon nemis tilida gap strukturali maqol, matal shaklidagi hamda so'roq so'zli frazeologik birliklarni o'zaro ma'no ko'laminin yaqinligi, ularning rang-barangligi, modalligi, ta'sirchanligi, vazifaviy voqelanishi bo'yicha mos kelishini shakllantiruvchi korpus yaratilgan;

gap strukturali frazeologik birliklarning yaxshilik va yomonlik, donolik va nodonlik, foyda va zarar kabi ma'no turlari ochib berilib, ularning shakllanishida leksik, stilistik, metaforik ma'no ko'chish ishtiroki muhimligi isbotlangan;

gap strukturali frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini baholashda sinxron-qiyosiy, diaxron-qiyosiy, parallel va distributiv tasvirlash sababli qiyoslanayotgan tillarning leksikografik manbalarida kodifikatsiyalanishi dalillangan;

gap strukturali frazeologik birliklarning paradigmatic, sintagmatic jihatdan faollashuvda polisemantik munosabatlarni amalga oshirishning belgisi sifatida ularning doimiy, tayyor tarkibda, nutqda qayta ishlab chiqilishi va takrorlanish imkoniyatlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

nemis va o'zbek tillari frazeologik lug'atlarida qayd etilgan gap shaklidagi frazeologik birliklarning qiyosiy tahlili natijasida aniq ma'lumotlar olingan;

nemis va o'zbek tillari frazeologiyasida gap shaklidagi frazeologik birliklarning sintaktik va struktur modellarga asoslangan tasnifi keltirilgan;

tadqiq etilayotgan tillarda gap shaklidagi frazeologik birliklarini semantik-struktura bo'yicha komponent tahlil qilish va tasniflash usuli ishlab chiqilgan;

gap shaklidagi frazeologik birliklarning nemis va o'zbek tillarida qo'llanish holatini lingvistik tahlil qilish metodikasi taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilgani, nazariy ma'lumotlarni dalillashda aniq ilmiy manbalarga tayangan holda ish olib borilgani, materiallar ilmiy nuqtayi nazardan sinalgan metodlar asosida tavsif etilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, nemis va o'zbek tillaridagi gap shaklidagi frazeologik birliklarning semantik, grammatik hamda lingvomadaniy xususiyatlari

qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida tahlil qilingan va ularning semantik-struktur xususiyatlari atroflicha ochib berilgan hamda gap shaklidagi frazeologik birliklarga ilmiy yondashuv natijasida ushbu birliklarning komponent tarkibi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati nemis va o‘zbek tillarida gap shaklidagi frazeologik birliklarning o‘ziga xosligi hamda tipologiyasiga oid xulosalardan, faktik materiallardan oliy o‘quv yurtlarida leksikologiya, frazeologiya, stilistika, tarjimashunoslik sohalarida ma‘ruzalar o‘qishda, maxsus kurslar o‘tishda, darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ayniqsa, nemis va o‘zbek tillaridagi gap shaklidagi frazeologik birliklar ikki tilli lug‘atini yaratishda, o‘quv jarayoniga tatbiq qilishda keng foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Nemis va o‘zbek tillarida gap shaklidagi frazeologik birliklarining semantik-struktur xususiyatlarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar va amaliy takliflar asosida:

gap strukturali frazeologik birliklarning paradigmatic, sintagmatik jihatdan faollashuvda polisemantik munosabatlarni amalga oshirishning belgisi sifatida ularning doimiy, tayyor tarkibda, nutqda qayta ishlab chiqilishi va takrorlanish imkoniyatlari borasidagi natijalari Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan 2014-2015-yillarda amalga oshirilgan I-204-4-5 “Ingliz tili mutaxassislik predmetlaridan axborot-kommunikatsion texnologiyalari asosida virtual resurslar yaratish va o‘quv jarayoniga joriy etish” nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 27-maydagi 1100/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, gap shaklidagi frazeologik birliklarning nemis va o‘zbek tillarida qo‘llanish holatini lingvistik tahlil qilish metodikasi mazkur loyiha materiallariga kiritilgan;

gap strukturali frazeologik birliklarning yaxshilik va yomonlik, donolik va nodonlik, foyda va zarar kabi ma‘no turlari ochib berilib, ularning shakllanishida leksik, stilistik, metaforik ma‘no ko‘chish ishtiroki borasidagi natijalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus+ dasturining 2017-2020-yillarga mo‘ljallangan 585845 EPP-1-2017-ES-EPPKA2-CBHE-JP “CLASS: Development of the interdisciplinary master program on Computational Linguistics at Central Asian universities (CLASS: “Markaziy Osiyo Universitetlarida kompyuter lingvistikasi bo‘yicha magistratura dasturini ishlab chiqish”) nomli innovatsion loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 29-maydagi 1121/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, gap shaklidagi frazeologik birliklarning nemis va o‘zbek tillarida qo‘llanish holatini lingvistik tahlil qilish metodikasi xususiyatlari aniqlangan;

gap strukturali frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini baholashda sinxron-qiyosiy, diaxron-qiyosiy, parallel va distributiv tasvirlash sababli qiyoslanayotgan tillarning leksikografik manbalarida kodifikatsiyalanishini o‘rganish natijalaridan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus+ dasturi 585845 EPP-1-2017-1ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational Linguistics at Central Asian universities” grant loyihasi doirasida foydalanildi (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 1-iyuldagi 1342/02-son ma‘lumotnomasi). Natijada, nemis va o‘zbek tillari frazeologiyasida gap shaklidagi frazeologik birliklarning

sintaktik va struktur modellarga asoslangan tasnifidan loyiha doirasida foydalanilgan;

hozirgi zamon nemis tilida gap strukturali maqol, matal shaklidagi hamda so‘roq so‘zli frazeologik birliklarni o‘zaro ma’no ko‘lamining yaqinligi, ularning rang-barangligi, modalligi, ta’sirchanligi, vazifaviy voqelanishi bo‘yicha mos kelishini shakllantiruvchi korpus yaratilishi bo‘yicha xulosalaridan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasida 2024-yilning 26-aprel kuni efirga uzatilgan “Assalom, Samarqand!” ko‘rsatuvini navbatdagi sonining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2024-yil 1-iyuldagi 01-07/172-son ma’lumotnomasi). Natijada, telekuzatuvchilarning xorijiy tillarni o‘rganish borasidagi nazariy va amaliy bilimlari oshirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda, jumladan, 2 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy maqola va tezis chop etilgan, jumladan, 3 tasi mahalliy OAK, 2 tasi respublika jurnallarida e’lon qilingan maqolalar, 7 tasi konferensiyalarda, 2 tasi yuqori impakt faktorga ega xalqaro jurnallarda chop etilgan maqolalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 124 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Frazeologizatsiyalashgan murakkab gaplarni o‘rganishning nazariy asoslari va tamoyillari”** deb nomlangan bo‘lib, to‘rt fasldan tarkib topgan. Bobning “Frazeologiyalashish hodisasining sodir bo‘lishi” deb nomlangan faslida til frazeologik qatlamining turli jabhalarini o‘rgangan tilshunos olimlarning frazeologiyani lingvistik soha, alohida fan sifatida tushunib yetib, ushbu tizimning struktur va semantik jihatlari, leksik-semantik xususiyatlari haqida izchil va to‘liq tasavvur beradigan umumlashtiruvchi xarakterdagi ilmiy-nazariy qarashlari o‘rganilib, ularga munosabat bildirilgan.

Ushbu faslda tilshunos va frazeolog olimlar tomonidan frazeologik birliklarning yetakchi xususiyati sifatida juda xilma-xil jihatlari ilgari surildi: idiomatik xususiyati, nominativ yaxlitligi yoki semantik yaxlitlik, takrorlanuvchanlik holati, komponent ichidagi bog‘lanish, frazeologik birliklarning so‘z identifikatori bilan almashtirilish imkoniyati, frazeologik birliklarning boshqa

tillarga tarjima qilinmasligi, ko'chma ma'noga egaligi kabilar.

Frazeologik birliklarning shakllanish jarayoni masalasida ham turli fikrlar mavjud. Ko'pgina tilshunos olimlar fikrlariga ko'ra frazeologizmlar uzoq vaqt davomida, asta-sekin, bosqichma-bosqich shakllanadi, frazeologiyalashish semantika va grammatika yo'nalishi bo'yicha uzoq davom etadigan jarayondir. Biroq, frazeologik birlikning shakllanish jarayoni frazeologiyalashuv uzoq davom etishi to'g'risidagi bu nuqtayi nazar ba'zi olimlar tomonidan umuman tan olinmaydi. Ularning fikricha, frazeologik birliklarning shakllanish jarayoni nisbatan tez sodir bo'ladi, chunki ularning yaratuvchisi individ, alohida shaxsdir va frazeologik birliklar nutqda asta-sekin emas, spontan, birdan shakllanadi deb hisoblashadi. Bizning fikrimizcha, har ikki nuqtayi nazar tarafdorlari ham haqdir, ya'ni shu ikki taraf fikrlari bir-birini to'ldiradi, shunda frazeologiyalashuv jarayonining sodir bo'lish davomiyligi to'g'ri aks ettirilgan bo'ladi. To'g'ri, frazeologizm bir shaxsning nutqida ko'z ochib yunguncha paydo bo'ladi, lekin u boshqa personajlar nutqlarida ham ishlatilmas ekan frazeologik birlik bo'la olmaydi, demak frazeologik birlik boshqa shaxslar nutqida qo'llanilib, asta-sekin xalq orasiga kirib borsagina ibora bo'la oladi, aks holda u frazeologizm bo'lolmaydi. Bundan xulosa shuki u vaqt talab etadi.

Til birliklarining frazeologiyalashuv muammosi frazeologiya umumiy nazariyasining asosiy masalalaridan biridir. Ushbu til hodisasini o'rganishning o'ta muhimligi uni umumnazariy tushunish zarurati bilan bog'liq. Shu maqsadda frazeologik birlik hosil bo'lishining asosiy turlari, frazeologiyalashish sxemalari, frazeologiyalashuvning idiomalashish bilan bog'langan holda tahlil qilinishi ko'rib chiqilgan. Frazeologiyalashuv jarayonining mohiyati L.I.Royzenzon, V.I.Koduxov, N.M.Shanskiy, I.S.Toroptsev, D.N.Shmelyov, E.A.Vasilevskaya, A.M.Slepsova, V.Yu.Melikyan, I.N.Kaygorodova⁶ va boshqalarning asarlarida aniq ochib berilgan.

Sintaktik frazeologiyaning asosiy birliklari bo'lmish gap strukturali frazeologik birliklar tilning frazeologik tizimi sifatida hanuzgacha yetarlicha o'rganilmagan, biroq til taraqqiyotining zamonaviy bosqichida bunday birliklarning soni doimo o'sib bormoqda. Ushbu tendensiya tajribaga asoslangan holda, tilning "konvensiyalashuv, turg'unlik, tizimlilik, muntazamlikka intilishini tasdiqlaydi hamda tejamkorlik, hissiylik va ekspressivlikning yuqori darajasi kabi yaxlit sintaktik qurilmalar xususiyatlari bilan tushuntiriladi.

⁶ Ройзензон Л.И. Фраzeологизация как лингвистическое явление // Труды Самаркандского государственного университета им. А. Навои. Кафедра иностранных языков. – 1961. – Вып. 113. – Самарканд, 1961. – С. 101-117.; Кодухов В.И. Общее языкознание: Учебник для студентов филол. специальностей. –М.: Высшая школа, 1974. – 303 с.; Шанский Н.М. Фраzeология современного русского языка. Текст. –М.: Высшая школа, 1985. – 160 с.; Торопцев И.С. К вопросу о возникновении фраzeологизмов и способе отграничения от сходных с ними единиц // Вопросы русской фраzeологии. Уч. зап. МОПИ. Русский язык. - 1966. - Вып. 11. - Т. 160. - С. 8- 25.; Шмелёв Д.Н. Синтаксическая членимость высказывания в современном русском языке. 2-ое изд. –М.: УРСС, 2006. – 152 с.; Василевская Е.А. К вопросу о взаимоотношении словосочетаний, фраzeологизмов и сложных слов // Учен. зап. МОПИ. Вопросы русской фраzeологии. - 1966. - Русский язык. Вып. 11. — Т. 160. - С. 32-38.; Слепцова А.М. Фраzeологизация и фраzeологизм (к вопросу о синтаксических фраzeологизмах) // Вопросы грамматики и лексики русского языка. –Изд. Воронеж, гос. пед. ин-та. 1972. Т. 126. – С. 69-74.; Меликян А.В. К проблеме фраzeологизации синтаксических конструкций (на материале испанского языка) // Вестник Пятигорского государственного лингвистического университета. 2011, № 3. – С. 122- 126.; Кайгородова И.Н. Проблемы синтаксической идиоматики (на материале русского языка): Монография. –Астрахань: Изд-во Астраханского гос. пед. ун-та, 1999. – 248 с.

“Sintaktik frazeologik birliklar ko‘p sonli va o‘ziga xos hisoblanadi. Zamonaviy tilshunoslikda sintaktik frazeologik birliklarning to‘rtta turi ajratiladi: kommunikemalar (so‘z-gaplar), frazeosintaktik sxemalar (frazeosxemalar), turg‘un modellar va turg‘un birikmalar.

Birinchi bobning ikkinchi faslida barqaror iboralar ko‘rib chiqiladi, ya‘ni, “mavjud gap yoki mavjud jumlar modellaridan tashkil topgan frazeologik birliklar” doimiy leksik tarkibga va grammatik shakllangan strukturaga ega va bundan tashqari, ma‘no ko‘chimi kuzatiladi. Barqaror iboralarning matnda va vaziyatda ajralmas so‘zlar birikmasi sifatida ishlatilishining o‘ziga xos xususiyatini emas, balki ularning ichki tuzilishini o‘rganish, barqaror iboralar komponentlari o‘rtasidagi ichki grammatik munosabatlar tahlili turli sathlarda - morfologik, sintaktik, leksik va semantik nuqtayi nazaridan olib boriladi. Semantik turg‘unlik belgisi frazeoqolipda qismlarning leksik to‘ldirilishi va ularning variatsiyalashuv imkoniyatiga bog‘liq bo‘lmagan turg‘un frazeosintaktik ma‘no mavjudligida voqelanadi. Ushbu holat bunday ma‘noning sintaktik xususiyatlaridan dalolat beradi, shunday ekan frazeosintaktik ma‘no uning formal rasmiylashtirilishi o‘ziga xosligi bilan izohlanadi.

Gap strukturali frazeologik birlikning semantik yaxlitligi uning ichki ma‘no umumiyliги bilan taqdim etiladi. Ushbu holat umuman olganda variatsiyalashuv bilan belgilanmagan frazeologik birlikka xos bo‘lgan ma‘no bilan birgalikda namoyon etiladi. Ma‘no yaxlitligi frazeoqolip ma‘nosining uning komponentlari ma‘nosidan mustaqil ekanligidan iborat. Gap strukturali frazeologik birlikning har bir elementi o‘z leksik ma‘nosini yo‘qotishga duch kelishi mumkin. Ushbu jarayon natijasida ular qayta shakllanib o‘z yaxlit ma‘no mavjudligi bilan tavsiflanadi. Strukturaviy variantlarda (ega yoki kesim olib tashlanishi) qurilma ma‘nosi saqlanadi. Bir qator tilshunos olimlar, jumladan V.L. Arxangelskiy, L.A. Leonova, E.P. Shubin⁷ va boshqalar o‘zlarining bu haqdagi mulohazalarini bildirishgan.

Nemis tilida kishilik olmoshlari *ich, du, er* dialogik nutqda bir fe‘lning hozirgi zamon shakli bilan birikib gap hosil qiladi, lekin ular takrorlanishlarga qaramasdan qotib qolgan (klishe) turg‘un birikma hosil qila olmaydi. Ich warte. Ich stehe. Du arbeitest. Er schläft. Tegishli takliflar ularning takrorlanishidan qat‘iy nazar, standart bo‘yicha tuziladi, ya‘ni takrorlanadigan va barqaror emas. Faqat juda cheklangan miqdordagi fe‘llar (aynan gapning boshqa bo‘laklari bo‘lmagan taqdirda), asosan olmoshsiz qo‘llaniladi, masalan: Verstehe. Bedauere. Gratuliere. Kondoliere. Empfehle mich. Stimmt. Fe‘lning umumiy paradigmasidan butunlay ajratilgan bu shakllar (deyarli faqat 1-shaxs birlik Präsens Indikativ) “tayyor” jumalarni yoki barqaror iboralarni tashkil qiladi. Bunday holatlar asosan tarkib jihatdan nostandart bo‘lib, unga ozgina ta‘sir qiladi, nostandart ellips hodisasi bilan birlashtiriladi, bunda jumlaning ayrim a‘zolarini chiqarib tashlash mumkin, ba‘zan esa hatto bu afzal ham ko‘riladi, faqat bu jumalarning ma‘lum bir leksik birliklar bilan to‘ldirilishi hisobiga amalga oshadi. Masalan: Was tun? Woher nehmen?, nemis tiliga xos bo‘lmagan “siqilgan“ model asosida qurilgan “so‘roq so‘z-infinitiv“; shuningdek, Nichts zu machen. Kaum zu glauben. va standart Da ist

⁷ Архангельский В.Л. Устойчивые фразы в современном русском языке. Основы теории устойчивых фраз и проблемы общей фразеологии. – Ростов н/Д: Изд-во Рост. ун-та, 1964. – 315 с.; Леонова Л.А., Шубин Э.П. «Готовые» предложения в современном английском бытовом диалоге, ИЯШ, 1970, № 5. – С. 11-21.

nicht zu machen. Das ist kaum zu glauben. Taqqoslash uchun shuni ta'kidlaymizki, o'zbek tilida, 'Men o'qiyman, ishlayman, o'laman, Nima qilishim kerak?, Nimani yeyish kerak?, Nimani yuvish kerak?' va boshqalar shu qolipga mos keladi.

Bunga kamdan-kam holatlarda uchraydigan, gapning bir aniq shakliga bog'lanib qolgan so'z va so'z birikmalarini kiritish lozim, masalan: Schießen Sie los! 'Ayting, gapiring!'; Halt den Mund! 'Jim!, Og'zingni yum!' (asosan Imperativ jumlada); Daran ist nicht zu rütteln! 'Shak-shubhasiz!' (asosan sein+zu+ Infinitiv shaklida).

Bobning uchinchi faslida frazeologik gaplarda modallikni ifodalash haqida so'z boradi. *Es* va *das* bilan boshlangan nemis tili turg'un (barqaror) gaplarida modallikni ifodalash uchun albatta kuchaytiruvchi yoki chegaralovchi yuklamalarning kelishi xarakterlidir. Masalan:

I. Modal kuchaytiruvchi yuklamalar ajablanish yoki majburiyat, ishonch ma'nosi bilan; a) *ja*: Das ist ja Mord! 'Bu dahshatli!'; Es ist ja zeigen. 'Keyin ko'rinadi'; b) *aber*: Das ist aber in fauler Zauber! 'Bu qattiq aldash!'; c) *doch*: Das ist doch zum Walzen! 'Bu qiziq!'; Das ist doch die Höhe! 'Bu juda ko'p!'; d) *noch*: Es geschehen noch Zeichen und Wunder! 'Mo'jizalar hali ham sodir bo'lmoqda!'.

II. Ajablanish, qiziqish va tahdid ma'nosiga ega modal cheklovchi yuklamalar: a) *so*: Das ist so meine Art 'Bu menga xos'; b) *zu*: Das ist zu toll. Es geht zu weit. 'Bu juda ajoyib. Uzoqqa boradi'; c) *nur*: Das ist nur Masche! 'Bu shunchaki firibgarlik!'; Es ist nur Katzensprung 'Bir qadam'; d) *bloß*: Das ist bloß der Anfang; es ist bloß ein malheur und kein Unglück! 'Bu shunchaki baxtsizlik emas!'; e) *gleich*: Es wird gleich einschlagen! 'Hozir mendan ko'rasan!'; Es wird gleich Zschuß geben 'Ha demay adabini yeydi'.

Gap modalligi har xil inkor ottenkalari bilan xarakterlanuvchi turg'un (barqaror) gaplarni alohida guruhini tashkil etadi. Ushbu turg'un (barqaror) gaplar tarkibida inkor etish usulini ifodalash uchun har xil vositalar jalb etiladi. Masalan: a) *nicht* orqali inkor etish: Das kann das Land nicht kosten. 'Ot bilan tuya bo'larmidi'; Es ist nicht geschehen! 'Juda afsusdaman!'; b) *kein* orqali inkor etish: Das ist kein Pappentiel! 'Bu arzimas narsa emas!'; Es ist kein Ende abzusehen 'Bu hali hammasi emas'; c) *un-* salbiy prefiks orqali inkor etish: Das geht ins Unendliche! 'Buni oxiri ko'rinmaydi-ku!'; Das ist nicht uneben. 'Hammasi bir tekis bo'lavermaydi'.

Ko'pincha inkor etish vositalari turg'un gaplar tarkibida gap boshida turgan *es* va *das* modallikning boshqa ko'rsatkichlari bilan birga keladi, bu modallik semantikasining yuqori darajasiga erishishga yordam beradi. Ushbu holatlarning ayrimlarini ta'kidlaymiz: a) *nicht* inkor so'zi + *gleich* modal yuklamasi: Es wird nicht gleich den Hals kosten! 'Yaxshi, Ular sizni osib qo'ymaydilar /buning uchun!'; b) *nicht* inkor so'zi + *doch* modal yuklamasi: Das ist doch nicht aus der Welt; d) *nicht* inkor so'zi + *noch* modal yuklamasi: Das ist noch nicht die Wahre Liebe! 'Bu menga yoqmaydi, bundan keyin ham davom eta olmaydi!'; e) *kein* + ja modal yuklamasi: Das hält ja kein Gaul aus! 'Bu hech narsaga dosh berolmaydi!'; f) *kein* + modal yuklama *noch*: Das ist noch kein Beinbruch! 'Hali hech narsa bo'lmabdiku'.

Bobning to'rtinchi faslida sintaktik frazeologiya, fraza-sintaktik sxema haqida

tushuncha bayon qilingan. V.V.Vinogradovning⁸ leksik va sintaktik frazeologiya muammolarini qamrab olgan ilmiy ishlarining yozilishi ko‘plab bahs-munozaralarning boshlanishiga sabab bo‘ldi. XX asr oxirlarida sintaktik frazeologiyaga bo‘lgan qiziqishning ortishi tufayli umumiy frazeologiya nazariyasi doirasida mustaqil yo‘nalishning paydo bo‘lishiga tamal toshi qo‘yilganligini ta’kidlashimiz lozim. Uning paydo bo‘lishi sintaktik frazeologik birliklarning turli sinflarini o‘rganish bilan bog‘liq bo‘lib, bu uning namoyon bo‘lish shakllarining xilma-xilligini hisobga olgan holda tilni tizimli anglashni chuqurlashtirishga imkon beradi.

Sintaktik frazeologik birliklar – bu shunday til birliklaridirki, ular frazeologiyalashuv jarayonida sintaktik tuzilma bo‘lib qoladi: gaplarning frazeologiyalashgan modellari, sodda va murakkab gaplar, gaplarning leksik va sintaktik elementlari gap modelining tarkibiy qismlariga aylanadi yoki qo‘shma gapda bog‘lovchi vositalari vazifasini bajaradi. Masalan: (*ish bo‘lib ish emas, lekin ...; o‘qishga o‘qidim, lekin ...; to‘y to‘y bilan, lekin ...*). Bular frazeologiyalashgan sxemalar, turli leksik materiallar bilan to‘ldirilgan gap modellari, lekin korrelyativ erkin konstruksiyalarning odatiy ma’nolaridan farq qiluvchi maxsus modal va semantik ma’nolarni ifodalovchi qat’iy grammatik shakllangan gaplardir. Bunday tuzilmalardagi leksik-sintaktik komponentlar o‘zining lug‘aviy ma’nosini to‘liq yoki qisman yo‘qotgan bo‘ladi.

A.V.Pashkovaning⁹ fikricha, sintaktik frazeologik birliklar turli leksik materiallar bilan to‘ldirilgan doimiy morfologik-sintaktik sxemalardir (*hech bo‘lmaganda ... ha; biror narsa ... nimadir*). Frazeologiyalashgan gaplarning ba’zi elementlari doimiy, boshqalari esa o‘zgaruvchandir. Morfologik-sintaktik yasaliş grammatik qurilishning o‘zginasi bo‘lib, uning sxemasi doimiydir: *hech bo‘lmaganda ...*.

Bir qator tadqiqotlarda sintaktik frazeologik birliklar grammatik frazeologik birliklar sinfiga kiritilgan, ular grammatik munosabatlarni ifodalashning tartibsiz, idiomatik usullari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi va frazeologiya hududining chekkasida (keng ma’noda) joylashgan bo‘ladi. Tadqiqotchilar grammatik frazeologik birliklarning (shu jumladan sintaktik) an’anaviy ravishda mavjud bo‘lgan frazeologik birliklardan tub farqlarini o‘rganishmoqda. Shunday qilib, grammatik frazeologik birliklarga “majoziy asos” xos emas. Majoziy ma’no frazeologik nominatsiyalarning nafaqat boshlang‘ich nuqtasi, balki ularning nutqiy sharoitda qo‘llanilishining asosiy tamoyilidir. Grammatik frazeologizmlarning ma’nosida majoziylikning bo‘lmasligi ularning munosabatni, hodisani nomlaydigan muayyan hukmni ifodalovchi predikativ birliklar ekanligi, leksik frazeologik birliklar esa nominatsiya vositasi ekanligi bilan izohlanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Nemis tilida gap-frazeologik birliklarning nutqda qo‘llanilishi**” deb nomlanib, unda so‘zlashuv nutqi frazeologiyasini tizimlashtirish va tasniflashning asosiy tamoyillarini belgilash maqsadi ko‘zlangan. Ushbu maqsadning amalga oshirilishi ilmiy izlanishlarni diskurs nazariyasi

⁸ Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке // Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – С. 140-161.

⁹ Пашкова А.В. Предикативные фразеологические единицы синкретичного характера // Синкретизм семантики синтаксических единиц. - Ростов н/Д, 1991. - С. 31-39.

doirasida bajarish imkonini beradi. Bunda albatta gap strukturali frazeologik birliklar muhim o‘rin tutadi. Ikki tilli lug‘atlardan joy olgan nemis tilidagi turli gap tuzilishidagi frazeologik birliklarning semantik, struktur va stilistik funksional tavsifini tipologik nuqtayi nazardan o‘rganish mazkur tildagi gap-frazeologik birliklar zahirasini mumkin qadar to‘la yoritish imkonini beradi.

Nemis tili uchun xos bo‘lgan gap qolipidagi frazeologik birliklar so‘zlashuv nutqida faol ishlatiladi. Ular ko‘pincha turli semantik, modal-baholash va ekspressiv jihatlarni o‘z ichiga oladi. Gap-frazeologik birliklarning ko‘pchiligi uchun har xil semantik-modal ma‘nolarning mavjudligi xarakterlidir. Biror kishining hatti-harakatlari yoki qilmishlarining tavsifi sifatida ishlatiladigan gap strukturali frazeologik birliklar ko‘pincha kinoyali tarzda qo‘llaniladi: Das ist er schön angekommen! ‘O‘sal bo‘ldi! Juda ko‘zidan uchib turgandi!‘; Da haben Sie was Schönes angerichtet! ‘Nimalar qilib qo‘ydingiz! Ishning rasvosini chiqarib qo‘ydingizku!‘; Ausgerechnet Bananen! ‘Nimalar istaysiz! Nimalar xohlamaysiz?’.

Umuman olganda, gap strukturali frazeologik birliklarning turli semantik guruhlarida kinoya qilish ko‘p uchraydi. Bunday kinoyali tarzda ishlatilgan gap-frazeologik birlik-luqmalar quyidagi ma‘nolarni bildiradi: 1) kishining biror narsadan ixlosi qaytishi: Das ist die ganze Bescherung! ‘Faqat (atigi) shumi?’; Das ist also der Dank für die Mühe! ‘Barcha ishlarim uchun mukofoti shumi?’; Das ist ja lieblich! ‘Ana xolos!’; 2) kishining biror istalmagan ish sababli hovliqishi, xavfsirashi: Das wäre noch besser! ‘O‘zi shu yetmay turibdi!’; 3) so‘zlovchi uchun istalmagan narsa: (Daß) Gott erberm! Daß sich (es) Gott erbarm! ‘Xudo asrasin! Xudo ko‘rsatmasin!’; 4) adresatning biror kishi harakati borasidagi kinoyali javobi: Red’ dir keinen Bruch! ‘Zo‘riqib shikast topma (o‘ta g‘ayratli notiqqa nisbatan)! Tomog‘ing yirtilib ketmasin!’; 5) so‘zlovchining o‘z suhbatdoshi so‘zlariga ishonmasligi: Das erzählen Sie Ihrer Großmutter! ‘Buni boshqaga aytasiz, menga emas!’; 6) mensimaslik: Mach dir nur keinen Fleck! ‘Ehtiyot bo‘l, o‘zingga dog‘ tushirma!’; 7) kinoyali tarzda tavsiflangan so‘zlashuv vaziyati, sodir etilgan voqea-hodisa va hokazo: Hat sich da was zu wundern! ‘Yoqamni ushlab qolibman!’; Das ist (ja) zum Schießen! ‘Kulaverib ichagimiz uzildi!’ va boshqalar.

Boshqa tarafdin, ko‘pgina gap strukturali frazeologik birliklar yetarli darajada murakkab semantik-modal mazmunga egadirlar. Eng avvalo, gap-frazeologik birliklar asosan o‘z ma‘no mazmunida birlamchi (o‘z) ma‘nosi hamda ko‘chma (ikkilamchi) ma‘nosini saqlaydi. Bunda keyingisi turli-xil modal ma‘no (tus)lar vositasida (hurmat, istehzo, kamsitishlik va boshqalar) to‘ldiriladi. Qiyoslang: Hut ab! ‘1) “bosh kiyimlar olinsin!” – o‘z ma‘nosida; 2) “Ta‘zim qilaman!” – ko‘chma ma‘noda hamda 3) modal ma‘nosi – hurmatni, hayratni ifodalashi’.

Gap strukturali frazeologik birliklarning bunday ko‘p vazifaliligi ularda ikki mustaqil ma‘noning shakllanishida namoyon bo‘ladi: Alter Schwede! ‘1) Hoy, qariya! va 2) Mug‘ombir, eski tulki’; Ich werde dir (et)was flüstern! ‘1)Men senga ko‘rsatib qo‘yaman! va 2) Men to‘g‘risini sening betingga aytaman!’; Sei kein Frosch! ‘1) Bo‘l! Uyalma! va 2) Jinnilik qilma! Ahmoqlik qilma!’; Glück ab! ‘1) Parvozingiz bexatar bo‘lsin! va 2) Eson-omon qo‘nib oling! Oq yo‘l!’; Du bist selbst wohl auf dem Mond? ‘1) Qulog‘ingga kirmayapti! Parishonxotirsan! va 2) Osmondan tushganmisan?’.

Har xil soʻzlashuv vaziyatlarda bir xil gap-frazeologik birliklarda farqlanadigan modal maʼnolarning ifodalanishi bilan gap strukturali frazeologik birliklarning koʻpvazifaligi rivojlanadi. Jumladan, quyidagi gap strukturali frazeologik birliklar hayrat yoki qoʻrqinch hayqiriqlari sifatida qoʻllaniladi: Heiliges Bein!; Heiliger Bim-Bam!; Heiliger Strohsack! ‘Ey xudo! Yo olloh! Yo tavba’. Gap-frazeologik birlik Heiliges Kanonenrohr! ‘Yo pirim!’ 1) ham hayratlanish 2) ham qoʻrqish maʼnolarida ishlatiladi.

Xuddi shunday bir xil gap strukturali frazeologik birliklar soʻzlashuv vaziyatiga koʻra keskin farqlanadigan maʼnolarda qoʻllanilishi mumkin: Laß dich heimgeigen! 1) ‘Obroʻying borida tuyogʻingni shiqillat!’ 2) ‘Odamlarga masxara boʻlma!’. Gap strukturali frazeologik birliklarning koʻp vazifaliligi turlariga mos ravishda ularning modal tussiz yoki aksincha, modal tusli holda qoʻllanilish holatlari boʻlishi mumkin. Masalan: Heißen Dank! ‘Chin yurakdan tashakkur bildiraman!’ gap strukturali frazeologik birlik kinoyali tarzda, hamda kinoyasiz ishlatiladi.

Ayrim gap-frazeologik birliklarning biror maxsus imo-ishora bilan birga qoʻllanilishi kabi oʻziga xos xususiyati qiziqarli holdir. Misol uchun: Es steht mir bis hierher! (tomogʻiga koʻrsatib) ‘Mana bu yergacha keldi! Bezor boʻldim! Bundan koʻnglim ayniydi!’.

Odatda, gap-frazeologik birliklarning koʻpchiligi umumxalq foydalanadigan birliklar hisoblanadi. Ularning katta qismi aniq soʻzlashuv vaziyatiga bogʻliq, qiyoslang: Da liegt ein Musikant begraben! ‘Mana shu yerga tillo (xazina) koʻmilgan!’ (odatda biror narsaga surinib (qoqilib) ketganda aytiladi).

Shu bilan birga, u yoki bu funksional cheklovga ega boʻlgan gap-frazeologik birliklar ajralib turadi. Gap strukturali frazeologik birliklaridan foydalanishdagi asosiy cheklovlarni sanab oʻtamiz:

1. Faqatgina soʻzlashuv nutqning ayrim kasbiy turi doirasida ishlatiladigan gap-frazeologik birliklar. Misol uchun, koʻpgina ezgulik tilovchi gap-frazeologik birliklar faqat sportchilar tilida - Gut Holz! ‘Oʻyinda omad tilayman!’; Schi Heil! ‘Changʻichilarga salom!’; alpinistlar tilida - Glück auf! ‘Omad sizga!’, ‘Eson-omon qayting!’; uchuvchilar tilida - Glück ab! ‘Parvozingiz bexatar boʻlsin!’; Gutes Land! ‘Eson-omon qoʻnib oling!’; tolibi ilmlarning tilida – In die Kanne! ‘Ich!’; suratkashlarning tilida – Bitte, recht freundlich! ‘Iltimos, tabassum qiling!’.

2. Qoʻllanilishi hududiy jihatdan cheklangan gap-frazeologik birliklar: Geh baden! ‘Toshingni ter!’ (venaliklar iborasi); Drah di! ‘Yoʻqol bu yerdan!’ (avstriyaliklar iborasi); Grüß Gott! ‘Assalomu alaykum!’ (bavariyaliklar iborasi)’.

3. Adresatlarning cheklangan soniga nisbatan foydalanilgan gap-frazeologik birliklar, misol uchun, bolaga nisbatan – Schick den Bock weg! ‘Oʻjarlik qilma!’ yoki faqat erkak kishiga nisbatan ishlatiladigan murojaat – Sei ein Mann! ‘Erkakmisan! Erkak boʻl!’.

4. Zamonaviy nemis tili soʻzlashuv nutqida ishlatiladigan gap-frazeologik birliklarning ayrimlari eskirgan iboralar turkumiga kiradi: Gehorsam(st)er Diener! ‘Xayr, sogʻ boʻling!’, ‘Kaminayi kamtarin!’; Euer Gnaden! ‘Janoblari!’; Heil dir! ‘Salom!’.

Zamonaviy nemis tili frazeologiyasidagi gap-frazeologik birliklarning koʻpchiligi frazeoshaklning nisbiy barqarorligi bilan xarakterlanadi. Odatda, ular

undash ma'nosidagi bir qolipga tushgan gaplar hisoblanadi. Shu bilan birga, ayrim gap strukturali frazeologik birliklar qo'llanish jarayonida sintaktik jihatdan tugallangan gaplar ko'rinishida ishlatiladi, misol uchun: Haben Sie Dank für... 'Tashakkur'.

Gap strukturali frazeologik birliklarning semantikasi va modal-ekspressiv tavsifi sohasidagi kuzatishlar ko'rsatishicha, ularning ko'pchiligi o'zaro ma'nolarning yaqinligi, tulari, modalligi, ta'sirchanligi, vazifaviy voqelanish bo'yicha mos keladi. Shunday qilib, gap-frazeologik birliklar tilda turli nominativ-psixologik sohalarni tavsiflovchi aloqador birliklarning ayrim guruhlarida sifatida gavdalanadi. Bir nechta gap-frazeologik birliklarning bunday birlashishi ularning tuzilishida o'z aksini topadi. Ayniqsa, mazkur holat qator gap strukturali frazeologik birliklar uchun umumiy bo'lgan so'z komponentning roli oshganda ko'rinib turadi. Uning bitta guruhga oid turli gap strukturali frazeologik birliklarning frazeoshakl tarkibida mustahkamlanishi shunga o'xshash yoki yaqin bo'lgan modellarning bir qolipdagi qurilmalar shakllanishiga imkon beradi. Model qurilishida tilak, buyruqni ifodalovchi yuklama ma'nosidagi *daß* bog'lovchisi boshlang'ich o'rinni egallagan gap strukturali frazeologik birliklarning guruhini qiyoslang: Daß er doch bald käme! 'Tezroq kela qolsa koshkiydi!'; Daß er noch lebte! 'Tirik bo'lsa qani edi!'; Daß (es) Gott erbarm! 'Xudo saqlasin!', 'Xudo asrasin!'; Daß du still bist! 'Jim tur! Ovozini o'chir!'.

Shu xilda yoki shunday modelga oid gap-frazeologik birliklarning boshqa guruhlarida ham shakllanadi, birgina olmosh bilan boshlanadigan gap strukturali frazeologik birliklarni qiyoslang: Du Dummkopf! 'Sen ahmoqsan!'; Du lieber Himmel! Du lieber Gott! 'Voy xudoyimey!', 'Astag'firullo!'; Du liebe Zeit! 'E xudo!', 'Yo rabbim!'. *gar* umumiy ravish komponentini o'z ichiga olgan frazeouyani qiyoslang: Lieber gar! Warum nicht gar!; Was denn nicht gar! 'Bitta shu kam edi! Shunisi yetmay turuvdi! Shunisi kam edi!'.

Ko'pincha otlar frazeologizm komponentlarini birlashtiruvchi negizni tashkil qiladi, qiyoslang: Geh zu Geier!; Hol dich der Geier!; Daß dich der Geier hole! 'Jin ursin!'; Weiß der Geier! 'Kim biladi!'; Großer Gott! 'Voy xudoyimey!', 'E xudo!; Gott sei Dank! 'Xudoga shukur!'; Gott befohlen! 'Xudo yor bo'lsin!'; Gott bewahre uns davor! 'Xudo asrasin!'; Gott geb'! das walte Gott! 'Xudo xohlasa!'; Gott weiß! 'Kim biladi!'; Gott sei Lob und Dank! 'Xudoga shukur!'. Yoki mazkur guruhga *der Henker* va *der Himmel* kabi umumiy komponentlarni o'z ichiga olgan frazeoguruhlar kiradi: Weiß der Henker! 'Kim biladi!'; Daraus werde der Henker klug! 'O'ta chalkash, aji-buji!'; Ich frage den Henker danach; Ich schere mich den Henker drum 'Bunga dahlim yo'q Mening buning bilan nima ishim bor!', 'Buning menga aloqasi yo'q'; Zum Henker! 'Jin ursin!'; Scher dich zum Henker!; Hol dich der Henker 'To'rt tomoning qibla! Yo'qol!', 'Toshingni ter!'.

Nemis tili gap strukturali frazeologik birliklarda undov gap qurilish modellari doirasida shakllanuvchi qurilmalar keng qo'llaniladi. Ular so'zlashuv vaziyatida fe'l semantik imkoniyatlari voqelanish negizida tez-tez qo'llanilishi natijasida barqarorlashadi. Masalan: Das soll mich wenig grämen! 'Bu meni xafa qilmaydi!'. Voqelangan fe'l semantikasining har xil konkretizatorlari (ayniqsa fe'lning ravish taqsimlovchilari) bunday gap-frazeologik birliklarning rivojlanishiga hissa qo'shadi: Ich werde es dir schon gründlich austreiben! 'Seni bundan qaytarib

qo'yaman!'. Xususan, so'kish semantikasini o'z ichiga olgan bir qolipdagi frazeologik birliklarning guruhlari asosida turuvchi "du + S" modelini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: du Hund 'itsan'; du Esel 'eshaksan'; du Dummkopf 'ahmoqsan'; du Narr 'ahmoqsan'; du Quatschkopf 'vaysaqisan!; mahmadonasan' va hokazo, umuman olganda 27 ta frazeologik birlik. Mazkur model-chizma bir oz kengaytirilishi mumkin: Und du Idiot 'tentaksan'; Ach du Pferdefuß 'maymoqsan'. Yuqorida ko'rsatilgan modellarga oid frazeologik birliklarning boshqa mustaqil ma'noli tarkibiy qismlar hisobidan kengayishi kamdan-kam uchraydigan hol hisoblanadi. Misol uchun, sifat komponenti kiritilishi mumkin: du treue Seele 'sodiq do'stan' va boshqalar. Keyinchalik undalma yoki boshqa undov iborani o'z ichiga olgan qolipning boshlang'ich komponenti bo'lgan *Ach* undov so'zi modelni tashkil qiluvchi vazifani ham bajaradi: (Ach, du meine Güte!; Ach, meine Gnädigste!; Ach, du mein Gott!; Ach, gnädige Frau!; Ach Gott!

Kuzatuvlarimizga binoan, quyidagi modellar ko'pincha ikkita komponentli frazeoshakldagi frazeologik birliklar gap strukturali frazeologik birliklar undalmalar sifatida ishlatiladi: «A + S»: Guter Gott; Großer Gott; lieber Gott va boshqalar; «M + S»: mein Guter; Meine Herren; meine Herrschaften; mein Kleiner; mein Lieber; mein Liebling va boshqalar. Yuqoridagi ikki model asosida «M + A + S» uch komponentdan iborat gap strukturali frazeologik birliklar undalmalar so'zlashuv nutqida mustahkam tarzda voqelanadi: mein lieber Sohn; mein lieber Mann; mein süßes Kind va boshqalar.

Umumiy tayanch komponent negizida shakllangan bitta frazeouyaga oid frazeologik birliklar semantik, modal-baholash va funksional jihatdan tabaqalashtiriladi. Shunday qilib, *lassen* fe'li yetarlicha rivojlanib shakllangan frazeouyaning asosiy tarkibiy qismi bo'lib, quyidagi semantik-modal tavsiflarga ega bo'lgan turg'un undov gaplar-frazeologik birliklarni shakllantiradi: 1) dadillik, vazminlik, turg'unlikka da'vat: Laß dich's nicht verdrießen! 'Xafa bo'lma! Umidsizlikka tushma!'; Laß dir nicht bange sein! 'Qo'rqma! Yuraging yorilmasin!'; 2) biror kishiga ko'zdan yo'qolish haqida berilgan buyruq: Laß dich hier nicht blinken! 'Daf bo'l! Ko'zga ko'rinma!'; 3) biror kishini vasvasaga berilmaslikka da'vat etish: Laß dich nicht verführen 'Vasvasaga berilma!'; 4) biror narsadan (rejalar, niyatlar) voz kechish haqida da'vat yoki buyruq: Laß dir's ja nicht einfallen! 'Buni o'ylama!'; 5) yoqimli ishtaha tilaydigan gap strukturali frazeologik birligi: Laß dir's gut schmecken! 'Yoqimli ishtaha!'; 6) gapiruvchini tinch qo'yishga da'vat qiluvchi gap strukturali frazeologik birligi: Laß mich zufrieden (ungeschoren)! 'Meni tinch qo'y!'; 7) birovga o'zini bosishga bo'yruq beruvchi gap strukturali frazeologik birligi: Laß gut sein! 'Bo'ldi! O'zingni bos!'; 8) adresatni hulqiy jiddiyligi, qat'iyligiga undovchi gap-frazeologik birlik: Lassen Sie diese Scherze! 'Hazilingizni qo'yib turing! Hazillarni yig'ishtiring!'. Ko'rib turganimizdek, bunday gap - frazeologik birliklar eng avvalo, o'z tuzilmasida undov turg'un gaplar ko'rinishidagi bir qolipdagi hosilalar hisoblanadi. Bunday qoliplar o'z komponent tarkibining barqarorligi bilan ajralib turadi. Ularning xilma-xilligi hamda murakkab semantik-modal jihatlarning mavjudligi tilda insonning psixologik ta'sirlanishlarining turg'un voqelanishini aks ettiruvchi o'ziga xos hayotiy vaziyatlarni qayd etadi.

Gap strukturali frazeologik birliklarning tipologiyasi nafaqat asosiy frazeoshakllarni, balki ularning hosilalarini ham o'z ichiga oladi. Binobarin, *Guten Abend!* Salomlashish (xayrlashish) asosiy frazeoshakli bilan birgalikda, *Schönen guten Abend!* kabi uning hosila frazeoshakli zamonaviy nemis tilida mustaqil turni tashkil qiladi. Bunda, agar *Guten Abend!* boshlang'ich frazeoshakl bo'lib, turli funksional uslublarga xos hisoblansa, uning yuqorida tilga olingan derivati faqatgina so'zlashuv nutq uslubiga tegishlidir. Eng kam komponent tarkibli gap strukturali frazeologik birliklarning negizida yangi gap-frazeologik birliklarning (boshqa frazeologik birliklari kabi) shakllanish holatlarini davom ettirish mumkin, qiyoslang: *Gute Nacht!* → *Ich wünsche allerseits gute Nacht!* 'Hammaga xayrli tun tilayman!'. Nemis tilidagi ayrim gap strukturali frazeologik birliklarga derivatsiya bo'yicha o'zaro mos keladigan birliklarning jufti yoki guruhlarini qo'llash xosdir. Misol uchun, bir ma'noni gap-frazeologik birliklar tuzilmaviy tarkibi va sintaktik tashkillashtirishini boshqa tarzda yetkazib beruvchi gap strukturali frazeologik birliklar juftlarini, qiyoslang: *Meinen Empfehl!* 'Xayr!' va *Ich habe die Ehre, mich zu empfehlen* 'Xayr, sog' bo'ling!'.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, gap strukturali frazeologik birliklar tizimida komponent tarkibi o'xshash bo'lgan sinonim iboralarning barqaror ishlatilish holatlari kuzatiladi *Du kannst dich begraben lassen!*; *Laß dich begraben!* 'Qurbing yetmaydi!'; *Damit kannst du dich begraben lassen!* *Laß dich damit begraben!* 'Bu bilan uzoqqa bora olmaysan!'; *Ich kann es mir doch nicht aus den Rippen schneiden!* *Ich kann es doch nicht durch die Rippen schwitzen!* 'Buni tug'ayinmi? Qayerdan olaman? Osmondan olamanmi?'.

Gap strukturali frazeologik birliklar tipologiyasi doirasidan tashqarida bir so'zli frazeoshakldan iborat turg'un undov gaplar orqali ifodalangan hosilalar qoladi, misol uchun *Abgemacht!* 'Kelishdik! Qo'lni tashla!'. Ayni paytda gap-frazeologik birliklarining ayrim frazeoshakllarida so'zusti tuzilmasi qayd qilingan, biroq kelib chiqishi bo'yicha bunday hosilalar bitta yasama so'zga borib taqaladi. Bunday so'zusti tuzilmasini (qiyoslang *fe'l + ajratiladigan old qo'shimcha*) frazeologiya tarkibida ham o'rgansa bo'ladi, qiyoslang: *Hau ab!* 'Yo'qol! Daf bo'l! Toshingni ter!'; *Ermanne dich!* 'O'zingni bos! O'ylab qara! Es-hushingni yig'ib qo'y!'. Bunda ayrim gap strukturali frazeologik birliklarda frazeoshaklning muqobil o'zgarishlari kuzatiladi, misol uchun: *Aber Eisen!* va *Eisen!* 'Albatta! Gap bitta!'. Ko'plab gap-frazeologik birliklar kontekstual qo'shimcha o'zgarishlarga moyil bo'ladi. Buning natijasida fikrni aniqlashtirishga erishiladi, qiyoslang: *Alle Achtung!* 'Zo'r! Yomon emas! Gap yo'q! Qoyil!', *Alle Achtung vor Ihrem Geschmack!* 'Didingizga gap yo'q!'.

Dissertatsiyaning "**Frazeologik gaplar va ularning qurilish turlari**" deb nomlangan uchinchi bobida gap strukturali frazeologik birliklarda o'zgaruvchanlik qanday namoyon bo'lishini, uning sabablari nimada ekanligini tahlil qilish, uning namoyon bo'lish usullarini ko'rsatish rejalashtirilgan

Frazeologiyalashgan gaplar o'z ichiga o'zgaruvchan, leksik mustaqil muchani olganligi, frazeologiyalashgan qolip asosida luqma mazmunini o'zgartirish imkoniyatini anglatadi. Masalan: Ma'no kuchaytirishda ishlatiladigan frazeologiyalashgan strukturali gap modellari – *mana qanday ishlash kerak, mana qanday yozish kerak, mana qanday o'qish kerak; qara qanday kitob, qara qanday*

yigit, qara qanday issiq; qara qanday yomg'ir bo'ldi, qara qanday oson bo'ldi; shu ham ishmi, shu ham talabami, shu ham o'qishmi.

O'zgaruvchanlik o'zgarmas muchaga ham tegishli. Bir qator gap strukturali frazeologik birliklarda u har xil so'zlar bilan ifodalanishi mumkin: *qayerda tuzaladi, qanday tuzaladi* ya'ni tuzalgan emas ma'nosida. Bunday holda, konstruksiyaning o'zgaruvchanligi ularning frazeologiyalashganligi bilan izohlanadi: o'zgarmas muchalar leksik ma'nosi va grammatik funksiyalarini to'liq yo'qotgan so'zlar bo'ladi, shuning uchun ham semantik va grammatik jihatdan qashshoqlashgan bir yoki boshqa so'zni ishlatish imkoniyati uning kommunikativ maqsadni muvaffaqiyatli bajarishiga to'sqinlik qilmaydi.

Barqarorlik va takrorlanuvchanlik frazeologiyalashishning dominant belgilari sifatida o'zgaruvchanlik xususiyatini inkor etmaydi va unga zid bo'lmaydi. Gap strukturali frazeologik birliklar o'z komponentlarini u xoh o'zgaruvchan, xoh o'zgarmas bo'lsin, variantlilikini inkor etmaydi, vaholangki ular o'z ona tilida so'zlashuvchilar uchun tushunarli bo'lib qolaveradi, ular qat'iy barqarorlik va takrorlanuvchanlik belgilari doirasida mavjud.

Sintaktik frazeologik birliklarning, shu jumladan, gap strukturali frazeologik birliklarning, ya'ni frazeologik tuzilishdagi gaplarning komponentlarining o'zgaruvchanligi ham, erkin tuzilmali gap komponentlarning ham o'zgaruvchanligi tabiiydir. O'zgaruvchanlik, ya'ni har xil ko'rinishlarda namoyon bo'la olish barcha til birliklariga xos xususiyatdir, adabiy tilning mavjudligi va amalda ishlatilishining qat'iy shartidir.

Har qanday tilning frazeologik tarkibi murakkab tizim bo'lib, bu tizimning umumiy qonuniyati uning uzluksiz rivojlanishidir. Bu jarayon frazeologik birliklarning paydo bo'lishi, eskirganlarining iste'moldan chiqishi va mavjud frazeologik birliklar ma'nolarining o'zgarishi orqali amalga oshiriladi.

Tilda bir qolipga tushib qotib qolgan frazalar ham gap strukturali frazeologik birliklar sirasiga kiritiladi. Odatda turg'un, gap strukturali frazeologik birliklar quyidagilarga bo'linadi: 1) maqollar; 2) matallar; 3) topishmoqlar; 4) ekspressiv va elliptik xarakterga ega bo'lgan dialogik nutqning doimiy frazemalari; 5) har xil narsa-predmet, voqiya-hodisalarga erkin holda hissiyotga berilib bildirilgan munosabatni ifodalovchi frazeologik iboralar; 6) modal frazeologik birliklar;

Bulardan tashqari, ma'lum qolipga tushgan frazeologik xarakterga ega bo'lgan predlog+ot so'z birikmalari ham gap strukturali frazeologik birliklar safidan o'rin olib gapga tenglashtiriladi. Ular modal, undov, turg'un frazeologik birliklar orasida ham uchraydi, masalan: zum Teufel 'jin ursin'; zum Henker 'ko'zimdan yo'qol, ko'zimga ko'rinma'; im Gegenteil 'aksincha, baxtga qarshi'; mit Verlaub 'ijozatingiz bilan, hurmat bilan'.

Gap strukturali frazeologik birliklar frazeologik hosila sifatida fe'l-ot analitik birikmalarining tarkibida uchraydi. Bu turdagi gap strukturali frazeologik birliklarning asosiy shartlaridan biri predlogning ko'p ma'noliligi va ot muchasining esa ma'nosi mantiqliligidir. Metaforizatsiyalashuv jarayonida predlog o'zining ma'lum bir munosabatlarni shakllantirish imkoniyatini yo'qotadi, ot muchasi esa o'zining leksik ma'nosini o'zgartiradi. Gap strukturali frazeologik birliklarning turg'un predlog+ot tarkibli turining katta qismi frazeologik derivatsiya natijasida paydo bo'lgan. Ko'p hollarda gap strukturali frazeologik

birliklar fe'l+ot guruhli frazeologik iboralardan hosil bo'ladi. Masalan: Es steht noch auf des Messers Schneide 'ahvol og'ir, vaziyat murakkab, ilojsiz holat'. Bu gap strukturali frazeologik iboraning kelib chiqishining boshlang'ich nuqtasi auf des Messers Schneide stehen frazeologik iborasidir.

Frazeologik birliklar yangi predmet, narsa-hodisalarni atash uchun ishlatilmaydi, balki ular ataladigan predmetlar, narsa-hodisalar, hatti-harakatlar, sifatlarni obrazli emotsional tasvirlash va konkretlashtirish uchun qo'llaniladi. Shuning uchun ham frazeologik birliklarning asosiy vazifasi atash emas, balki ekspressivlikni ifodalashdir. Shu bois nemis tili badiiy asarlarida aynan qotib qolgan predlog+ot turkumidagi gap strukturali frazeologik birliklar yetarli darajada keng qatlamni tashkil qiladi, ular hissiy baholovchi va ekspressiv bo'yoqdorlik ma'nolariga egadirlar. Masalan: Wo um Himmels Willen sollte ich mich denn jetzt verstecken?, Wie Zur Holle ich da hatte hinkommen können?

Gap strukturali frazeologik birliklarning yana bir turi bu ularning tarkibida so'roq olmoshlarining ishtirok etishi va asosiy grammatik vazifani o'z zimmasiga olishi bilan belgilanadi. Bunda asosan *was, wer, wie, wo, wohin, warum* kabi so'roq olmoshlarining faolligini kuzatishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan gap strukturali frazeologik birliklarni ijobiy yoki salbiy ma'no berishini ot komponenti oldidan kelgan aniqlovchi belgilab beradi. Masalan: Was für ein hübsches Ding! 'Oh, qanday zo'r narsa!' yoki Was für ein schlechtes Ding! 'Voy, qanday yomon narsa!' Bunday gap strukturali frazeologik birliklar ko'pincha his-hayajondan tashqari, hayron qolish, lol qolish ma'nolarini beradi. Ushbu holatlarda frazeologik birliklar tarkibidagi ot komponent hech qanday aniqlovchi olmaydi. Masalan: Was für ein Buch! 'Bu qanaqa kitob ekan!', Was für ein Lärm! 'Bu qanaqa shovqin bo'ldi!', Was für ein Kind! 'Bu qanaqa bola bo'ldi!' v.h.k.

Bu turdagi gaplarning stilistik jihati ham idiomalashgan hisoblanadi, chunki ular so'zlashuv nutqida muntazam ravishda qo'llaniladi. Mazkur frazeoqoliplar ekspressiv frazeologiyalashgan sintaktik qurilmalarning o'ziga xos turi hisoblanadi va bu qoliplarning hissiy bo'yoqdorlik darajasi o'zgaruvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi. Hozirgi zamon nemis tilida yuqorida aytiib o'tilgan frazeoqolip so'roq ma'noli bo'lib, sodda gap shaklida mujassamlashganligi sababli mahsuldor hisoblanadi.

Hozirgi zamon nemis tilida paremiologik birliklar boshqa tillarda bo'lgani kabi til tizimining ma'lum bir qatlamini tashkil qiladi. Paremiologik birliklar ham to'liq frazeologik birliklarning belgi va xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan, frazeologik birliklar kabi ikki va undan ortiq so'zdan tashkil topadi, ko'chma ma'noga ega bo'ladi va qotib qolgan shaklga, muqum qolipga egadir. Paremiologik birliklar grammatik qurilish nuqtayi nazaridan tugallangan gap shaklida namoyon bo'ladi, ya'ni ularni gap strukturali frazeologik birlik deb sanashimizga asos bor. Masalan: Das eigene Haus ist die liebe Mutter! 'O'z uying o'lan to'shaging!'; yoki Kein Rauch ohne Feuer! 'Shamol bo'lmasa daraxtning uchi qimirlamaydi!', yoki 'Bir balosi bo'lmasa, shudgorda quyruq na qilur!'; Ein Man, ein Wort! 'Yigitning so'zi bitta bo'ladi', 'Aytilgan so'z otilgan o'q'.

Paremiologik birliklarning asosida nasihat, tarbiya, u yoki bu xalqning mentalitetidan kelib chiqib, shu xalqning dunyoqarashi, tabiati va o'giti yotadi.

Biror-bir til yo‘q-ki, uning tarkibida paremiologik birliklar bo‘lmasa. Har qaysi xalq o‘zining dunyoni tushunishning psixologik jihatlari, xo‘jalik yuritish turi, iqlim sharoitlari va jug‘rofiy joylashuvidan kelib chiqib, o‘z paremiologik fondiga ega bo‘ladi. Bunda albatta ushbu xalqning dunyoqarashi muhim o‘rin tutadi. Tillar qanchalik bir-biriga lug‘at fondi va grammatik qurilishi, frazeologik, paremiologik jihatlardan yaqin bo‘lsa, shunchalik qurilish va mazmun jihatdan ham o‘xshashlik ko‘proq bo‘ladi.

Maqollar nemis tilida sodda darak gap shaklida ko‘proq uchraydi. Masalan: Alles hat seine Zeit. ‘Har narsaning o‘z vaqti bor’. Die Wände haben Ohren. ‘Devorning ham qulog‘i bor’. Lekin ularni murakkab gap shaklida ham uchratish mumkin. Masalan, ergash gapli qo‘shma gap shaklida: Hunde, die bellen, beißen nicht. ‘Hurgan it tishlamaydi’; Bog‘lovchili bog‘langan qo‘shma gap shaklida: Wer einmal lügt, dem glaubt man nicht, und wenn er auch die Wahrheit spricht. ‘Yolg‘onchi chin deya olmas, chin desa ham, el inonmas’; Bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap shaklida: Reden ist Silber, Schweigen ist Gold. ‘So‘zlagandan so‘zlamagan yaxshiroq, so‘zlab edim, boshimga tegdi tayoq’, ‘Ahmoq so‘zlar, aqlli tinglar’. Maqollar odatda gap strukturali frazeologik birlik hisoblanib, ular shaklan va sintaktik nuqtayi nazardan so‘zlarga ajratilmaydi, qismlarga bo‘linmaydi, yaxlit bir til birligi hisoblanadi.

Paremiologik birliklarni gap strukturali birlik sifatida o‘rganar ekanmiz, ularning katta qismi umumiy universal konseptlarga asoslanganligining guvohi bo‘lamiz. Bular *vaqt, zamon, makon, joy, o‘rin, sabab, burch, haqiqat, adolat, yolg‘on, erkinlik, ozodlik* kabi mavhumlikni bildiruvchi konseptlar bo‘lsa, *baxt, quvonch, baxtsizlik, alam* va boshqa emotsional holatlarni bildiruvchi gap strukturali frazeologik birliklar, ya’ni paremiyalar ham nutqimizda qo‘llaniladi.

Paremiologik birliklar u yoki bu xalqning turmush tarzini, hayotini, falsafiy qarashlarini aks ettiradi, masalan nemis tilida Billig stinkt, teuer blinkt paremiologik iborasi mavjud bo‘lib, uning muqobilini o‘zbek tilida ‘Arzonning oshi tatimas’ maqolida ko‘rishimiz mumkin. Yoki, Besser arm in Ehren als reich in Schanden. ‘Nomussiz yurmoqdan nomusli o‘lmoq yaxshi’.

Paremiologik birliklarni maqollar va matallarga ajratishimiz mumkin. Matal-paremiyalar maqol-paremiyalarga juda yaqin turadi, lekin maqollar so‘zlovchi nutqini umumlashtirib xulosalasa, matallar so‘zlovchi nutqini bezaydi, jonlantiradi, nutqning hissiy bo‘yoqdorligini oshiradi. Nemis tilida ko‘pincha matal ikki qismdan iborat bo‘ladi. Ular maqollarga nisbatan qisqa, lo‘nda bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Masalan: Einmal ist keinmal. ‘Bir marta hisobmas’.

Matallar ergashgan qo‘shma gapli, bog‘langan qo‘shma gapli shakllarda ham mavjud bo‘lishi mumkin. Masalan: Freundschaft ist Freundschaft und Dienst ist Dienst. ‘Do‘stlik o‘z yo‘liga, ish o‘z yo‘liga’.

O‘zbek va nemis tillarida ham bir xil situatsiyada bir-biriga juda o‘xshash bo‘lgan gap strukturali frazeologik birliklar qo‘llanilish holati uchraydi, masalan: ‘Ish qochib ketmaydi, shoshilma oldin buni bajar’. Bunda qo‘llanilgan matal nemis tilida ham mavjud bo‘lib u quyidagicha ifodalanadi: Arbeit ist kein Hase, sie läuft nicht im Wald.

Gap strukturali frazeologik birliklarning lingvokulturologik tahlili shuni ko‘rsatadiki, nemis tilida ham, o‘zbek tilida ham ular asosan shaxsni, individni

tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib, har ikkala xalqning tarixiy rivojlanish jarayoni va shu kundagi kundalik hayotida qo'llanilishi bir-biridan katta farq qilmasligini ko'rsatadi. Masalan: *Wie der Vater, so der Sohn* paremiologik birligini o'zbek tilidagi shaklida 'Ot o'rnini toy bosar' shaklida ko'rishimiz mumkin, ya'ni otasi qanday bo'lsa o'g'li ham shunday degan ma'noda.

Lingvomadaniy tahlilga tortilishi natijasida ulardagi muchalar ba'zi bir hollarda to'liq mos tushishi, ba'zan esa shu ma'nodagi boshqa komponentlar bilan ifodalanishini yaqqol ko'rishimiz mumkin.

XULOSA

1. Zamonaviy nemis va o'zbek tillarida gap strukturali frazeologik birliklar struktur va semantik xususiyatlariga ko'ra, tarkib va guruhlanish jihatdan o'ta xilma-xildir. Ularning barchasi nutq jarayonida faol qo'llanadi.

2. Nutq jarayonida ko'pchilik gap strukturali frazeologik birliklarning struktur jihatdan shakllanishining muhim belgisi sifatida, frazeoshaklning qisqaligi va ixchamligini sanab o'tish mumkin. Bu holat eng sodda sintaktik modellar sifatida nemis va o'zbek tillaridagi ikki tilli lug'atlarda kodlangan. Bunday modellar sifatida predlog-substantiv modellarini ko'rsatib o'tish mumkin. Bunday gap strukturali frazeologik birliklar derivatsion, hamda funksional xilma-xilligi va faolligi bilan ajralib turadilar.

3. Ixcham modeldagi gap strukturali frazeologik birliklar kontekstda faolligi bilan birga yana boshqa gap strukturali frazeologik birliklarning paydo bo'lishiga derivatsion asos bo'la oladi. Ba'zi holatlarda bu jarayon allaqachon sodir bo'lgan bo'lib, yangi gap strukturali frazeologik birliklar til fondida mustaqil maqomni egallab ulgurgan bo'lsalar, boshqa holatlarda jonli sintaktik modellar asosida yangi frazeologiyalashgan gaplar paydo bo'layotganini kuzatamiz. Xususan, zamonaviy nemis va o'zbek tillaridagi gap strukturali frazeologik birliklarning aniqlovchi yoki ot qismlarining o'zgarishi kuzatiladi.

4. Nemis va o'zbek tillarida gap strukturali frazeologik birliklarning tarkibiy jihatdan ixchamligiga boshqa yo'llar bilan ham erishiladi, ya'ni ular ot, predlog, ko'makchi, bog'lovchi, olmosh, sifat va son so'z turkumlarining sintaktik birikmalarga aylanishi bilan hosil bo'ladi. Bu sintaktik birikmalar o'rtasida predlog+ot birikmalari faolroq bo'lsa, unda qolganlari alohida-alohida, yakka hollarda duch kelinadigan holatlardir. Ikki yoki uch komponentli mahsuldor gap strukturali frazeologik birlik modellari derivatsion harakatchanlikni namoyish etadi.

5. Suhbat jarayonida gap strukturali frazeologik birliklarni tanlashda va ularning kontekstda qayta voqelanishida muloqat vaziyati ma'lum darajada ta'sir o'tkazadi. Gap strukturali frazeologik birliklarning frazeoshakl barqarorlashuvida bunday ta'sirni kuzatish mumkin, natijada an allen Enden, in aller Kürze kabi frazeouyalar hosil bo'ladi. Bunday gap strukturali frazeologik birlik turlari ko'p sonli klishelar yoki sintaktik jihatdan erkin konstruksiyalar bo'lgan tautologik frazeologik birliklarni ham qamrab oladi.

6. Gap strukturali frazeologik birliklarning turli xil modellarining leksik-semantik jamlanuvi frazeouyalar shakllanishida katta rol o'ynaydi. Bunda gap

strukturali frazeologik birliklarning har xil konkretlashish darajalari ifodalanadi va aniq majoziy dominantlarga ega bo‘ladi. Ayniqsa, gap strukturali frazeologik birlik – paremiologik birliklarda insonni jismoniy va psixologik xususiyatlari keng parametrlar bo‘yicha tavsiflaydi. Gap strukturali frazeologik birlik – paremiologik birliklar semantik nuqtayi nazardan mavzulanish va guruhlanish xususiyatiga ega.

7. Gap strukturali frazeologik birliklar nutqiy muloqot jarayonida ko‘p hollarda individning o‘ziga xos uslubidan darak beradi. Ushbu o‘ziga xoslikni faqat kontekst orqali tushunib olish mumkin, masalan, modal – baho ma’nosiga ega bo‘lgan gap strukturali frazeologik birliklar bunga yaqqol misol bo‘ladi. Ular hazil, kulgi, kinoya, ishonchsizlik, shubha, kesatiq, mensimaslik, hayron qolish va boshqa ma’nolarni bildirib keladi. Demak nemis va o‘zbek tillari diskursida qo‘llanilayotgan gap strukturali frazeologik birliklar hayotiy-maishiy vaziyatlarning barchasini ta’riflab berishga qodir.

8. Gap strukturali frazeologik birliklar talqini va tavsifi tizimli izohlanishida ularning ketma-ketligi ikki yo‘nalishda o‘rganiladi: birinchidan, frazeobraz yaratishning o‘ziga xosligi, stilistik xususiyatlari, ekspressiv modal ta’siri, frazeoshakl o‘zgaruvchanligi bo‘lsa, ikkinchi tomondan ma’lum bir gap strukturali frazeologik birlikning o‘rab turgan kontekst bilan aloqasi, shuningdek u yoki bu til lug‘at fondi bilan o‘zaro munosabatlari, bog‘liqligi inobatga olinishi kerak.

9. Gap strukturali frazeologik birliklar nutqda faollashganda asosan uchta ko‘rinishga ega ekanligi ma’lum bo‘ldi. Birinchidan, boshlang‘ich shaklda, ya’ni hech qanday o‘zgarishsiz; ikkinchidan, implisit shaklda, ya’ni qisqartirilgan shaklda (komponentlarning bir yoki ikkitasi tushib qoldiriladi; uchinchidan, eksplisit shaklda, ya’ni komponentlarning kengaygan shaklda, biron-bir unsur orttirilishi hisobiga.

10. Gap strukturali frazeologik birliklar rivojlangan tipologiyaga ega bo‘lib, asosan, har xil struktur-semantik guruhlariga tegishli frazeologik birliklarni qamrab oladi. Til birliklari sifatida frazeologiya diskursiv faoliyatni o‘ziga xos ravishda metaforik nuqtayi nazardan boyitadi, nutq qurilish materiallarining qo‘llanilish imkonini beradi va shuning bilan birga nutq jarayonida frazeologiyalashgan gaplarning derivatsion faolligi oshadi.

11. Frazeologiyalashgan gaplar uzatilayotgan ma’lumotni qismlarga ajratib, replikani jonlantiradi, ayniqsa, gap strukturali frazeologik birlik – paremiologik birliklar fikr yuritishni faol qo‘llab-quvvatlaydi va nutqiy aktda bayonni yanada ishonarli bo‘lishiga hissa qo‘shadi. Gap shaklidagi frazeologik birliklar uchun fikrni ekspressiv shaklda ifoda etish xosdir. Gap strukturali frazeologik birliklar tasavvur yoki fikr-mulohazani, fikrning bir qismini kengaytirilgan murakkab ko‘rinishda ifodalab, u yoki bu voqea-hodisalarga, ko‘rinishlarga tiniq va qisqa, lo‘nda shaklda baho berish imkonini beradi.

12. Frazeologiyalashgan gaplar muloqot matnining har xil tarkibiy qismlari badiiy-obrazli tuzilishining muhim elementidir. Shuning bilan birga, gap strukturali frazeologik birliklar nutqda nominativ-kompozitsion maqsadlarda ham qo‘llaniladi. Tildagi mavjud tuzilmalar har xil matn qismlarining idiomatik boyitish vositasi sifatida muloqot matnining ekspressivligini kuchaytirish va nutqiy aktlarni frazeologik nuqtayi nazardan jonlantirish uchun xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ТУРСУНОВ АХМАД АМИРОВИЧ

**СОПОСТАВИТЕЛЬНОЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ
ФРАЗЕОЛОГИЗИРОВАННЫХ ПРЕДЛОЖЕНИЙ В НЕМЕЦКОМ
ЯЗЫКЕ И ИХ АНАЛОГОВ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ
(на основе словарей)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сравнительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии по филологическим наукам (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан рег.№ B2022.3.PhD/Fil2785.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного Совета (www.samdchti.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель: **Яхшиев Ашур Абдиевич**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Хайруллаев Хуршидjon Зайниевич**
доктор филологических наук (DSc), профессор

Рузиев Яраш Бозорович
доктор философии по филологическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация: **Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 г. в ____ часов на заседании Научного Совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, д.93. Тел: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером____). Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, д.93. Тел: (99866) 238-29-37.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 г.
(реестр протокола рассылки №__ от «__» _____ 2024 г.)

Д.А.Киселёв
Заместитель председателя научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

Г.К.Мирсанов
Учёный секретарь научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), доцент

Ш.С.Сафаров
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Вопрос активизации фразеологических единиц в разных жанрах устной и письменной речи становится всё более актуальным в современном мировом языкознании. Так как имеется необходимость всестороннего анализа проблем связанных с разработкой формально-семантических моделей языковых единиц, а особенно фразеологических единиц, в которых отражается своеобразность немецкого языка. Одним из самых важных направлений современной лингвистики является изучение отношений структурно-семантических и когнитивно-дискурсных свойств фразеологизмов. Кроме того, системное отражение в тексте всех лингвистических и социокультурных свойств фразеологизмов остаётся актуальной проблемой теоритического и практического языкознания.

В настоящее время в мировом языкознании, исходя из структуры предложения и уровня выражения фразеологические единицы со структурой предложения изучаются двумя способами: 1) фразеологические единицы рассматриваются по моделям предложений; 2) с точки зрения теории единицы языковые единицы вновь не образуются (путём соединения единиц нижнего уровня) в речевом акте, а употребляются в виде готовых языковых материалов, которые хранятся в памяти говорящего. Таким образом, в немецком, английском, русском и других языках постоянные предложения-фразеологические единицы, то есть фразеологические единицы со структурой предложения изучались прежде всего не только с точки зрения рекуррентности, но и значения и модальности.

За годы независимости в узбекском языкознании формировалась практика изучения иностранных языков на основе современных принципов, творческого освоения передовых идей мировой науки. То что «Узбекистан должен быть конкурентоспособным в сфере науки, интеллектуального уровня, современных кадров, высоких технологий»¹⁰ означает поднятие исследований в сфере языкознания на практический и теоритический более высокий уровень. Проводимые в республике широкомасштабные реформы имеют большое значение для обучения и исследования языка которое является развитием межкультурного общения. В настоящее время как и во всех сферах науки в узбекской германистики происходят положительные изменения. Теоритическое языкознание обратило особое внимание на изучение функциональных характеристик языковых структур в качестве научной основы совершенствования практических навыков в изучении иностранных языков. Основываясь на передовые достижения научного развития уделяется особое внимание на «...поощрение научных исследований и достижений инновационной деятельности, создание эффективных механизмов внедрения в практику достижений научной и

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 22.12.2017. Internet havola: <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

инновационной деятельности»¹¹. Соглашения между Республикой Узбекистан и Германией открывают новые приоритеты и направления сотрудничества в сфере науки и образования, в частности, определённую важность представляют научные исследования, направленные на изучение дискурсивного и прагматических параметров процесса общения. Поднятие на новый уровень всестороннего сотрудничества Узбекистана с разными странами предполагает необходимость организации обучения и исследования иностранного языка на основе своеобразности культуры, менталитета, социальных отношений и мировоззрения носителей определённого языка. С этой точки зрения необходимость подхода на основе новых методов анализа к изучению имеющихся в иностранных языках фактов основываясь на нормы национального языка в особенности к всестороннему освещению вопросов стилистики и синтаксиса иностранных языков является вопросом представляющей первостепенную важность для языкознания Узбекистана.

Данная научно-исследовательская работа внесёт определённый вклад в решение задач, отмеченных в Указах Президента Республики Узбекистан от 8 октября 2019 года № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 29 апреля 2020 года № УП-5987 «О дополнительных мерах по совершенствованию юридического образования и науки в Республике Узбекистан» и от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития нового Узбекистана направленные на 2022-2026 года», в постановлениях Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», от 27 июля 2017 года № ПП-3151 «О мерах по дальнейшему расширению участия экономических сфер и направлений в поднятие качества подготовки специалистов с высшим образованием», от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республики Узбекистан» и в других нормативно-правовых актах.

Соответствие исследования приоритетным направлениям науки и технологий Республики. Настоящее выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в Республики Узбекистан. I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

